



UDK: 159.922

Gulhayo JO'RAYEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Professor, DSc N.Murodova taqrizi asosida.

LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS OF METAPHORS FORMED ON THE BASIS OF PERSONIFICATION AND OBJECTIFICATION (USING THE EXAMPLE OF THE STORIES OF TOGAI MURAD)

Annotation

In this article, the personification in the stories of Togai Murod and his reflection of metaphors formed on the basis of animating living beings are statistically generalized, combined into thematic groups and linguoculturologically analyzed.

Key words: Metaphor, personification, cognition, gestalt, image, code, valence, denotation.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ МЕТАФОР, ОБРАЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ ПЕРСОНИФИКАЦИИ И ПРЕДМЕТИЗАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ ТОГАЯ МУРАДА)

Аннотация

В этой статье олицетворение в рассказах Тогай Мурада и его отражение метафоры, сформированные на основе одушевления живых существ, статистически обобщены, объединены в тематические группы и лингвокультурологически проанализированы.

Ключевые слова: Метафора, олицетворение, познание, гештальт, образ, код, валентность, денотат.

SHAXSLASHTIRISH VA PREDMETLASHTIRISH ASOSIDA HOSIL BO'LGAN METAFORALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI (TOG'AY MUROD QISSALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tog'ay Murod qissalaridagi personifikatsiya va uning aksi bo'lgan jonli mavjudotlarning jonsizlashtirilishi asosida hosil bo'lgan metaforalar statistik umumlashtirilib, mavzuiy guruhlariga birlashtirilib, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Metafora, personifikatsiya, kognitologiya, geshtalt, obraz, kod, valentlik, denotat.

Kirish. Fanda yangi bilimni topish va aniqlashtirishning ming yillardan beri ma'lum bo'lgan eng muhim usullaridan biri analogiya bo'lib, u turli obyektlar belgilari, xususiyatlari yoki munosabatlarining o'xshashligiga asoslanadi, ana shu o'xshashlik asosida bir obyekt haqidagi ma'lumotlar ikkinchi obyektga ko'chiriladi. Bu kognitiv jarayon, shubhasiz, metafora jarayonining mohiyatini tashkil etadi.

Antik davrda metafora so'z san'atining tayanch istilohi bo'lgan. Metafora tusunchasining ilk nazariy talqini(garchi boshqa nom bilan atalgan bo'lsa-da) yunon faylasufi va olimi Aristotel asarlarida uchraydi. Aristotelning fikricha, metafora ham o'xshatishdir, chunki ular o'rtasida arzimagan farqlar mavjud, xolos. Masalan, u sherday tashlandi ifodasida o'xshatish bor, agar ifoda sher tashlandi tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi.

Metafora atamasining o'zi esa Izokratning "Evagorus" asarida (taxminan miloddan avvalgi 383-yil) ilk marta uchraganligi manbalarda qayd etiladi. Antik davr donishmandlaridan yana biri Kvintilianning yozishicha, metafora yaratuvchining inoyati va borliq hodisalarini nomlash uchun xizmat qiladigan cheksiz xazinadir.

Adabiyotlar tahlili. Metafora – bu polisemik hodisa bo'lib, o'zbek tilshunosligida polisemiya hodisasiga o'tgan asrning 2-yarmidan e'tibor qaratila boshlandi. Olim T.Aliqulov o'z tadqiqotlari orqali polisemiyaning tilshunoslikning aktual sohalaridan biri ekanini yoritib berdi. O.Azizov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojdiyev kabi olimlar ham o'z izlanishlari bilan polisemiya hodisalarini tadqiq etishdi. Biroq o'zbek tilshunosligida ma'no ko'chish usullarining nazariy asoslari bo'yicha maxsus monografik plandagi ishlar uchramaydi.

Polisemik hodisaning faol turi metafora mustaqil tadqiqot obyekti sifatida G.Qobuljonovanning nomzodlik dissertatsiyasida lison va nutq jihatidan tahlilga tortildi. Tadqiqotchi Z.Tohirov nutqiy metaforik ma'no hosil bo'lishining o'ziga xos pragmatik xususiyatlarini o'rgandi. "O'zbek tilida nutq jarayonida metafora hosil bo'lar ekan, bu hodisa hosila sememadagi pragmatik sema hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, sher, burgut, lochin, ohu, qashqir leksemalarining shaxs bildiruvchi semema, la'l, charos, bodom, gul leksemalarining kishi a'zosini bildiruvchi semema hosil qilishi metafora bo'lib, bunda hosila sememalar pragmatik ma'noga ega bo'ladi".

G.Qobuljonova metafora yuzaga kelishidagi uch turni farqlab, ularning biri lingvistik asosda ekanligini yozadi:

1. Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasidagi umumiy o'xshashlik.

2. Shu o'xshashlikning aksi bo'lgan mutanosib semalar.

3. Narsalardan birining nomi aynan nutq sharoiti uchun mavjud emasligi. Tadqiqotchi A.Xo'jamqulov metaforalarni quyidagicha tasniflaydi:

Antropomorfik metafora.

Zoomorfik metafora.

Fitomorfik metafora.

Kosmomorfik metaforalar.

Abiomorfik metafora.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda metodikaning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, kontekstual tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Metaforalarning yuzaga kelishi turli tuman bo'lib, odamning turli hayvonlarga, jonli mavjudotlarga o'xshatish barobarida jonli va jonsiz mavjudotlarning ham insonga qiyoslanishi, ya'ni

personifikatsiya hodisasini ham o'z ichiga oladi. Professor M.Mirtojiyev: "Metaforaning bu ko'rinishida ham so'zning leksik ma'no referenti hosila ma'no referenti sirtqi belgi, harakat yoki holat xususiyati vazifasi kabilar doirasida o'xshash bo'laveradi. Ammo bu o'xshashlik hosila ma'no referentiga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi", - deb ta'kidlagan edi. D.Xudoyberganova qarashlariga ko'ra, M.Mirtojiyevning mazkur fikrlari so'z-metaforalarga oiddir. Ammo metaforalar faqat so'zdan iborat bo'lmay, ya'ni tarkibidagi jumalalarda o'xshatish qurilmasi mavjud bo'lgan metaforalar bilan birgalikda matn makrotuzilmasidan o'xshatish munosabati anglashiluvchi matnlar ko'rinishida ham uchraydi. Quyida shunday matnlarga guvoh bo'lamiz:

Asablar – dushman, raqib. Polvonlar birovi bo'shroq bo'lsa-ku, yaxshi, yiqilmaganiga shukur qilib yura beradi. Bordi-yu, ikkovi-da g'oliblikka bab-barobar da'vogar bo'lsa-chi? Unda...asablar olishadi!(TA,371)

Tajriba – g'olib. Yoshlik – yoshligini, ko'pni ko'rganlik- ko'pni ko'rganligini qildi! Tajriba! Tajriba zafar qozondi!(TA, 376)

Gap – jonli mavjudot, odam. Mengboy kalning gapida jon bor. (TA, 389)/ Yomon gap raketadan oldin yuradi, yaxshi gap toshbaqadan keyin yuradi. (TA,487)

Tabassum – raqqos. Yuzlarida tabassum o'ynadi. (TA, 392)

Quyosh – odam. Quyosh zarrin kokillarini yoyib ufqdan bosh ko'tardi. (TA, 416)

Qish – odam. Qish qaridi. (TA,436)

Omad – odam. Omad deganlari salominida bermaydi (TA,459)


Sunbula – ayol. Sunbula bolaladi. (TA,625)

Mezon – inson. Mezonlar arg'amchi soldi. (TA, 625)

Kun – ayol. Kun tug'di. (TA, 602)

Kun – baland bo'yi kishi. Kun terak bo'yi bo'ldi.

(TA, 603)



2-chizma. Tog'ay Murod qissalarida personifikatsiyaga asoslangan "JONSIZ MAVJUDOT – BU JONLI MAVJUDOT" qolipidagi metaforalar.

Yuqoridagi misollarda yuzaga kelgan metaforik hodisalar matn referentlariga jonli holat baxsh etib, tasviriylikning yuzaga kelishini ta'minlagan.

Metafora hodisaning yana bir turida personifikatsiya hodisasining aksini ko'rish mumkin:

Odamlar – bodomlar. Odamlar-u odamlar, tog'da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! (TA, 336)

Odam – olov. Bo'ri lovillab ketdi.(TA,350); Asarlari mukofot olsa-ku, kuyib-yonamiz. (TA,635)

Odam – mag'zava. – Shu Boboqul bilan Mamat polvon juda lanj ekan, nima dedingiz, Bo'ri polvon? – E, siz so'ramang, men aytmayin! – dedi Bo'ri olvon. Mag'zava, lanj ham gapmi, mag'zava! (TA, 352)

Odam – somon. Oshiq bo'ldim, arpaning somoniga, mayda-yo, mayda-yo, O'lim bersin qizlarning yomoniga, mayda-yo, mayda-yo!.. (TA,354)

Odam – po'stak. ...Oydinkim, po'stakni qayoqqa otib yuborsa, yerga, albatta, teskarisi bilan borib tushadi. Karimni ham qayoqqa otib yuborsa, yerga teskarisi- ko'kraklari bilan borib tushadi. El Karimni po'stak deyishining boisi ana shunda. (TA, 355)

Odam(raqib) – tayyor osh. Bo'ri polvon Ismoilni ko'zga ilmay-ko'zga ilmay davra aylandi. "Tayyor osh-ku"...deya o'zidan ketdi. (TA,368)

Odam(polvon) – qo'g'irchoq. Qo'g'irchoq! Polvon emas bular, qo'g'irchoq. (TA,387)

Odam – yorug' yulduz. El tag'in yorug' yulduzni – Bo'ri polvonday bir zo'rni qaradi! (TA, 387); Odam – xira yulduz. Yorug'yulduz davralarga hamisha ko'rk beradi,

salobat beradi! Tevarakdagi rangsiz yulduzlar, mitti yulduzlar xiraligini bildirmaydi!(TA,387)

Odam – cho'lpon. Birodarlar Momosuluv tushimda Cho'lpon edi, hushimda Oy edi, qo'ynimda Oftob bo'ldi! (TA,413)

Odam – oy. Birodarlar Momosuluv tushimda Cho'lpon edi, hushimda Oy edi, qo'ynimda Oftob bo'ldi! (TA,413)

Odam – oftob. Birodarlar Momosuluv tushimda Cho'lpon edi, hushimda Oy edi, qo'ynimda Oftob bo'ldi! (TA,413)

Odam(hamsoya) – qosh, qoboq. ...Bir kuni meni-da hasharga aytdi. O'lmayinning kunidan bordim. Hamsoyachilik, qosh bor, qoboq bor-da. (TA, 431)

Odam – olov. Qadrimga kuydim. (TA, 448)

Odam – shar. Tars yorilib ketguday bo'ldim. (TA, 448)

Odam – to'nka. - Uh, savodsiz to'nkalar! – dedi. (TA,618)


Odam – soya. Bir oynoma Pahlavon Daho G'arb soyasi, dedi. (TA,618)

Odamlar (xalq) – buyum. Bu xalq hali voyaga yetmasdanoq pachoq bo'lib qoladi. (TA,619)

Odam – bir pul. Shoir sifatida shoir, odam sifatida bir pul!(TA, 624)

Odam – olatayoq. Tanqidchi – olatayoq. Melisalar qo'lidagi olatayoq. (TA,630)

Odam – til. Men oltita "til" ushlab kelib edim! (TA, 670).



3-chizma. Tog'ay Murod qissalaridagi "JONLI PREDMET – BU JONSIZ PREDMET" qolipi asosida shakllangan metaforalar

Kuzatishlar natijasida ko'rinadiki, Tog'ay Murod tomonidan yaratilgan qissalarda qo'llangan metaforalar yozuvchining individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko'rsatish bilan birga o'zbek millatiga mansub til egalarining badiiy tafakkuri, til birliklariga bo'lgan munosabatini ham namoyon etadi. Yozuvchi asarlarida qo'llangan metaforalar tilimizning beqiyof boyligidir. Metaforalar, asosan, belgi va harakat bildiruvchi so'zlar semantikasidan anglashilib, o'zida qiyoslanayotgan hodisa yoki predmet haqidagi tushunchani ifodalaydi. Masalan, Yulduzlar g'uj-g'uj yondi(TA,338); Qadrdon ko'zlar Bo'ri polvon qalbida ko'pirib toshayotgan qahrni so'ndirib yubordi(TA,359); Boshimizda kun yondi(TA,477); Yuzlarim lovullab yondi(TA,493) kabi jumalalarda ko'chma ma'noda qo'llangan fe'l o'z semantikasida matn tuzuvchining yulduzlar, qahr, kun, yuzlarni olovga o'xshatganligini namoyon qiladi. Quyida shu kabi metaforalarga misollar keltiriladi.

Yurak – cho'g'don. – Omin, belingga quvvat, bilagingga kuch, yuragingga o't bersin, Ollohu akbar! – deya duo qildi. (TA,388)

Ko'ngil – suv. Ko'nglim tomchilashini qo'ymaydi, men – kulishimni. (TA,407)

Ko'ngil – idish. Bo'ri polvon ko'ngli to'lib-to'lib keldi. (TA,407)

Ko'ngil – o'lja. Men tinmas, Momosuluvning ko'ngliga-da kiribman. Oshiqona-oshiqona qadamlar bosib, ko'nglini ovlabman. (TA,412)

Ko'ngil – non. Ko'nglim tub-tubida nimadir ... nimadir bir nima mayda-mayda ushoq bo'lib bo'lib ketdi. (TA,471)

Ko'ngil – makon. Odamning ko'ngliga nimalar kelmaydi deysiz? (TA,612)

Kal bosh – oftob. Ura-a-a, kun chiqdi. (TA,410)

Qosh-ko'z – kishan. Qosh-ko'z yomon-da, odamni darrov asir etadi. (TA,622)

Rang – buyum. Ko'klam rangim sindi. (TA,436)

Ot- qanot. Oti borning qanoti bor, - dedim. ...Ot bitdi-qanot bitdi. (TA,414)

Ot – rubobiy musiq.

Ot – ko'rkam surat.

Ot –yaltirovchi narsa. Ot kavsh qaytarganda yonadi, ko'zni qamashtiradi. (TA,451)

Gap – oyoq kiyim. Beposhna gaplar ep bo'lmaydi. (TA,441)

Iymon- yonuvchi narsa. Iymoning kuygurlar! Bir mo'min bandani o'ldirasanlarmi! –dedim. (TA,458)

Ko'pkari- xastalik(salomatlik dushmani). Men bundan ko'p yillar muqaddam aytganman, ko'pkari eskilik sarqiti, salomatlik dushmani, hayot uchun xavfli deb! (TA,480)

Dunyo – imorat. Keyin-keyin balsam, biron-da bu dunyoga ustun bo'lolmas ekan... (TA,483)

Tuxum – beshik. Daho papirosini burqsitib-burqsitib tortdi. Cho'g'ini polapon tumshug'iga olib bordi. ...Daho moyakni otib yubordi. Polapon bir yon bo'ldi, beshigi bir yon bo'ldi. (TA, 662)

“Atlasda o'ziga loyiq rangi bo'ldi, rangiga loyiq nomi bo'ldi: Sakkiztepkilik, Marg'ilon xonatlas, Samarqand oqshomi, Marg'ilon mash'ali, Farg'ona yo'llari, Layli, Guli, Shirin, Mahliqo, Shotikapak, Shodiqara, Qo'chqorshoxi, Tiri kamon, Oltin kalit...”

Bir yil to'rt fasl bo'ldi. Fasllar ranglarga mo'l bo'ldi: bahor – gulzor, yoz – oftob, kuz – munis, qish – marmar...

Elimiz fasllarni matoga ko'chirdi: Hamisha bahor, Bog'u bo'ston, Rayhon, Gul va Navro'z, Gulnamozshom, Bargikaram...

Atlas - elimiz tarixi. Atlasda elimiz kechirmish hayitlari bor, fojialari bor.

Atlas – qo'shiq, elimizning azaliy ham so'ngsiz qo'shig'i!“ (“Oydinda yurgan odamlar”, 24)

Ko'rinadiki, asarda atlas matosi elimiz tarixi, xalqimizning azaliy ham so'ngsiz qo'shig'i, deya ta'riflangan. Ushbu matoning turlarining nomi ham metafora asosida shakllangan. Atlasni tarix yoxud qo'shiq deb atash aynan metaforik-metonimiyani yorqin namunasidir.

Lingvokulturologiyada ham kognitologiyadagi kabi konsept tushunchasi ahamiyatlidir. Konsept tushunchasi geshtalt, freym, ramz, obraz, sxema, ssenariy unsurlaridan tashki topgan yaxlit sistemadir. Geshtalt nemischa so'z bo'lib, fikriy jarayonni aks ettiruvchi yaklitlikni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu kategoriya V.Keler va K.Dunkerlar tomonidan dastlab psixologiya, keyinchalik bu fan orali tilshunoslikka kirib kelgan. Tilshunos olim J.Lakoff geshtalt kategoriyasi lingvistik yondashgan olim bo'ldi.

Geshtalt tushunchasining mohiyati shundan iboratki, matnni tashkil etuvchi har bir unurning matnga munosabati, matndagi voqelikning reallashuviga xizmati, matn tarkibidagi o'z va ko'chma ma'nolarni umumlashtirib, aql tasavvuri uchun aniq tushuncha ifodasidir.

Quloq sol, momosi, quloq sol. Qayerdandir odam ovozi kelyapti...

Siyrak adirda yonboshlab yotmish bobomiz momomizga shunday dedilar.

Bobomiz og'izlarini angraygannamo ochdilar. O'ng quloqlarini yellar yelmish tarafga tutdilar.

Yellar ovozlarni yorqin olib kelmadilar.

Bobomiz o'ng kaflarini quloqlari sirtiga tutdilar. Yelpana qibdilar. Nafas

olmadilar. Bor vujudlarini berib quloq soldilar.

Bobomiz shndan-da bir nimani eshitmadilar. Chuqur tin oldilar.

Bobomiz oydinga tikildilar.

Manovi yoqdan shekilli...- dedilar. – O'zi vaqting xushmi, momosi?

Eson-omon yuribsanmi? To'rt muchang butmi?..(Tog'ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”)

Momo so'zi funksioal metafora bo'lib, “nevarali ayol kishi” ma'no semasiga ega. Yuqoridagi matnda momo so'zi aslida nevara tugul, farzand ham ko'rmagan ayolga turmush o'rtog'i Qoplon tomonidan aytilgan. Matndagi momo – “shartli”, hatto onalik baxtini tuymagan momodir. Uni boshqalar tomonidan ham shunday atalishi yoshi katta ayol kishini momo deb atash, garchi qarindoshlik ifodalaydigan semasi bo'lsa-da, o'zbek madaniyatida hurmatlash etnik steritipining bir ko'rinishidir. Momo, bobo, amaki, tog'a, xola, amma kabi qarindoshlik atamalaridan qarindosh bo'lmagan kishilarga nisbatan foydalanish zamirida evfemik metaforizatsiya hodisasi uchraydi.

Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi momosi va bobosi ifodalarning evfemik vosita ekanligi A.Omonturdiyevning ilmiy tadqiqatlarida quyidagicha talqin etiladi: “Oymomo va Qoplon to o'lguncha bir-birlariga Bobosi va Momosi deb murojaat qilishadi. Yozuvchi ham qissada bosh qahramon nomlarini tilga olmaydi. Ularning otamiz, onamiz, so'ngroq bobomiz, momomiz evfemik atamalar bilan nomlaydi: 1. Onamiz otamiz yangi ro'zg'or qilyapti deb eshitdi. Onamiz g'amgin bo'ldi. Onamiz kuyib-kuyib ketdi. 2. Otamiz otlandi. Otamiz jamoa bilan yuzma-yuz bo'ldi kabi”.

Xulosa va takliflar. 1. O'xshatish asosida metaforizatsiya hodisasining yuzaga kelishi bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni oson idrok etish imkonini beradi.

2. Metaforaning yuzaga kelishi quyidagi unsurlarni talab qiladi:

Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasida (keng ma'noda) o'xshashlik.

Shu o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lgan mutanosib semalar.

Narsalardan birining nomi nutqiy sharoit uchun yo'qligi.

Ana shu unsurlar ta'minlaganda, nomning metaforik ko'chishi yuzaga keladi.

Tog'ay Murod tomonidan yaratilgan qissalarda qo'llangan metaforalar yozuvchining individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko'rsatish bilan birga o'zbek millatiga mansub til egalari badiiy tafakkuri, til birliklariga bo'lgan munosabatini ham namoyon etadi. Yozuvchi asarlarida qo'llangan metaforalar tilimizning beqiyof boyligidir.

Metaforalar, asosan, belgi va harakat bildiruvchi so'zlar semantikasidan anglashilib, o'zida qiyoslanayotgan hodisa yoki predmet haqidagi tushunchani ifodalaydi.

Taklif sifatida shuni aytib o'tish kerakki, ijodkor asarlarida qo'llangan lingvokulturemalar, shu jumladan metaforalar ham nafaqat tilimiz, balki millatimiz tarixi, buguni va kelajagi uchun muhimligini inobatga olib, tilshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri lingvomadaniy birliklar lug'atini yaratish o'z tadqiqini kutayotgan vazifadir.

ADABIYOTLAR

1. Античные теории языка и стиля. – М. –Л.,1936.
2. Аристотель. Риторика / Античные риторики. –М.: МГУ, 1978.
3. Арутюнова Н.Д. Метафора дискурс / Теория метафоры. –М.: Прогресс, 1990.
4. Begmatov E. O'zbek ismlari. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.
5. Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. –T.: "Ma'naviyat, 2009.
6. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. –М., 1990
7. Мамадалиев М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол.фан. номз. дисс... –Тошкент: 1998.
8. Mahmudov N. Termin, obrazli so'z va metafora.//O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2013-yil 4-son.
9. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010
10. Nasrullayeva G.S. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti. Fil.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Farg'ona, 2019.
11. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. –T.: Fan, 2006. –B.183.
12. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy-lingvistik talqini: Filol.fan.nomz...diss. –T.,2000.
13. Tohirov Z. Metafora leksema-sememasining pragmatic semasi/O'zbek tili va adabiyoti. -1983. №1.
14. Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций. Л.,1940.
15. Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.